



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2025



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN
KONFERENSIYASI TO'PLAMI

2-JILD 5-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



**RANGLAR ORQALI O'RGANISH : VIZUAL TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA
TA'LIM SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI**

Zoyirova Dilfuza Xayriddinovna

Samarqand Davlat chet tillari instituti Narpay Xorijiy tillar fakulteti ilmiy rahbari

Muratbaeva Ulzada Abu qizi

Samarqand Davlat chet tillari instituti Narpay Xorijiy tillar fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA Rang — bu o'quvchi tafakkurini uyg'otuvchi til. Rang faqat estetik element emas — u axborot, his-tuyg'u va diqqatni boshqaruvchi kuchli vosita. Psixologlar (masalan, Arnheim, 1974) ranglarni idrok jarayonining bir qismi deb bilishadi — ular xotira, diqqat va hissiy holatni tartibga soladi. Rang-tasvir ta'limini o'rganayotgan o'quvchilar tafakkurni yorituvchi va borliqni ham real ko'ra bilan baholovchi sifatida yaralishadi. Bu jarayon ham ta'lim samaradorligiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Ya'ni, oddiy matnli slaydda o'quvchi 20% ma'lumotni eslab qoladi, ammo rangli grafik va tasvirlar bilan ishlaganda — 70–80% gacha eslab qolish darajasi oshadi va shuningdek, hozirgi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish shiddatli tarzda oshib ketdi. Shunga ko'ra ham o'qitish uslublari yangicha yondashuvni talab qilmoqda.

KALIT SO'Z : Vizual texnologiyalar; STEAM ta'lim; harakatni boshqarish; diqqat; aqliy mehnat; ruhiy salomatlik; pedagogik jarayon; pedagogik mahorat.

KIRISH

Har bir sohada, har bir kasbda e'tirof etiladigan narsa bu diqqat hisoblanadi va shuningdek, bir necha voqealarni ichidan eng muximiga diqqat qaratiladi. Diqqatni asosli bitta kanaldan kelgan axborotga boshqa tomondan keladigan axborotlar ahamiyatsiz bo'lib qoladi. Diqqatni bitta xodisaga qaratgan holda qolganlarini ham ma'lum tarzda nazorat qilib turish qobiliyatini rivojlantirish juda muhim. Bunga axborotni saralash yo'li bilan erishish mumkin. Maqsad va istaklar harakatlar strategiyasini ifodalasa, ularni amalga oshirish uchun qilingan harakatlar taktik harakatlardir. Harakatni boshqarishda markaziy rejalashtirish va teskari aloqa katta ahamiyatga ega.

"Diqqat, aqliy mehnat faoliyatini yuqori darajada saqlay olish mumkinmi?" -degan savolga rus olimi N. E. Vedenskiyning ta'kidlashicha, aqliy mehnatning yuqori mahsuldorligini ta'minlovchi sharoitlar quyidagilardan iborat:

- har qanday mehnatni bajarishga asta-sekin kirishish;



- -ish bajarishning optimal ritmini va tartibini tanlash va unga rioya qilish;
- -ishni izchillikda va ketma-ket bajarishga odatlanish;
- mehnat va dam olishni to'g'ri tashkil qilish, bir ish turini ikkinchisi bilan almashtirib olib borish;
- -muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish tufayli aqliy mehnat malakalarini avtomatlashtirish va takomillashtirish hamda avtomatik malaka hosil qilish.

Yuqoridagi omillarning ko'pchiligi o'quvchilarning ham ish qobiliyatini aniqlaydi, ammo ularning eng muhimi o'quv kun tartibiga va o'z vaqtida dam olishga rioya qilishdir.

Ranglar inson yoki jonzoatlarning faqat tashqi ko'rinishi emas balki ularning ichki holatini yuzada aks ettiruvchi tur ekanligining yana bir isboti. Ilya Repin o'zining «Вестник знаний» jurnali nashriyotchisi Vilgelm Bitner portreti xomaki tasvirida insonning ichki holati va xonaning muhitni ko'rsatib berishga e'tibor qaratgan. Faol amaliy faoliyat jarayonida har bir ijodkorning ijodiy ishtiyoqlariga qarab, o'z ishini olib borish ketma-ketligi ishlab chiqiladi. Ishni tartibsiz olib borish mutaxassislarga xos emas. Ba'zan qo'yilma birdan katta taassurot qoldiradi va ilhomlantiradi, lekin ba'zan badiiy qiziqishni topish va aniqlash uchun ko'p mehnat qilishga to'g'ri keladi. Talabalarni oddiylikda go'zallikni ko'rishga o'rgatish ta'lim beruvchilarning vazifalaridan biridir. Bu soha vakillari "umumiylikdan xususiylikka" tamoyili asosida ish olib borishadi. Menimcha, ranglar orqali o'rganish usuli ayniqsa san'at, dizayn, geografiya yoki hatto til o'qitishda ham katta foyda beradi. Chunki u o'quvchining ko'rish xotirasini faollashtiradi, darsni zerikarli emas, balki ijodiy va jonli jarayonga aylantiradi. Bunday darslarda o'quvchi nafaqat ma'lumot oladi, balki estetik did, tafakkur va tasavvurni ham rivojlantiradi. Aslida esa, texnologiyani rang, tasvir va dizayn orqali o'quvchini ilhomlantirish vositasiga aylantirish kerak.

Rang bu — o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi hissiy ko'prik, u bilimni yurakdan o'tkazib yetkazish imkonini beradi. Vizual texnologiyalar yordamida o'rganish o'quvchilarda axborotni tez qabul qilish, eslab qolish va tahlil qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Masalan, rangli slaydlar, infografikalar, videodarslar yoki interaktiv dizayn elementlari orqali o'tilgan mavzular oddiy matnga qaraganda ancha yaxshi yodda qoladi.

MAQSAD VA VAZIFALAR

Keling masalani boshqa tomonini ham ko'rib chiqaylik, demak, samarali o'qitish muhim ammo o'quvchi psixologiyasidan kelib chiqadigan bo'lsak, o'quvchi darsni o'qiydi, o'rganadi, ammo, unda charchoq yuzaga kelishi tabiiy holat.



I. P. Pavlov charchashda tormozlanish jarayonining ahamiyatiga to'xtalib o'tar ekan: «Charchash tormozlanish jarayonining avtomatik ichki qo'zg'tuvchilaridan biridir», - deb yozgan edi. Bolalarga bajarilayotgan yuklama ortiqcha ekanligi yoki charchaganliklari ko'rinib turgan bir vaziyatda mashg'ulotni davom ettirish shunday holni keltirib chiqaradiki, uni I. P. Pavlov chegaradan «tashqi yoki himoyalash tormozlanishi» deb atagan edi, bu tormozlanish po'stloqning asab hujayralarini zo'riqib ketishidan himoya qiladi.

Po'stloq hujayralarining tez zo'riqib ketib tormozlangan holatga o'tishi ayni bir sharoitda bosh miya quyi bo'limlari hujayralarining chidamliligiga keskin sur'atda zid keladi. O'qituvchining pedagogik mahorati, uning yangi materialni tushuntirish paytidagi ko'tarinki kayfiyati, o'qituvchining har ohangda so'zlashi: o'qituvchi bir xil ohangda so'zlagan nutqi o'quvchini zeriktirib, mudratib qo'yadi, bunday paytda o'quvchi tomonidan dars materialini o'zlashtirish qiyinlashadi.

Bosh miya yarimsharlari po'stlog ida tarqoq tormozlanish jarayoni paydo bo'lib, uyqu bosadi. Gigiyenachilar o'quvchilarning darsda toliqish sabablarini o'rganib chiqib, qiziqarli ma'lumotlarni keltirganlar. Ularning aniqlashicha, yuqori sinf o'quvchilari va litsey talabalarining charchashiga asosiy sabab ko'pincha ularning darsga qiziqmasliklari, o'qishning og'irligi, mashg'ulot bajarishga layoqatsizlik, darsni zerikarli o'tilishi, dars materialini tushuntirmaslik, mikromuhitning salbiy ta'siridir. Agarda charchash holati o'z vaqtida dam olish bilan almashtirilmasa u o'ta charchash holatiga o'tadi.

Bu organizm uchun kasallikdir. O'ta charchagan bolalar darsni yaxshi natijada o'zlashtirishlari pasayib ketadi. Maktab o'quvchilarida o'ta charchash, asosan, o'quv va o'qishdan tashqari ishlarning me'yoridan ortib ketishi, kun tartibining buzilishi, ochiq havoda yetarli sayr qilmaslik, ovqatlanishni to'g'ri tashkil qilmaslik natijasida kelib chiqadi.

O'rganilgan ma'lumotlarga asoslanib charchashning oldini olish choralaridan yana biri deb, pedagogik jarayonning ratsionalizatsiyalashni belgilash mumkin. Ya'ni darsning tuzilishi va mazmuni jihatdan to'g'ri tashkil qilish innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan o'quvchilarning aqliy mehnat faoliyatini jadallatirish kerak. Jadallashtirish faqat boshlang'ich sinflardagina emas, yuqori sinflar, maxsus maktablar, (litsey va gimnaziyalar) uchun ham zarurdir. Chunki litsey va gimnaziyalar o'quv yuklamasi umumiy ta'lim maktablardagidan ortiq bo'lib, ba'zan kuniga 10–12 soatgacha yetadi, tabiiyki bunday yuklama o'quvchi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolaning jismoniy va ruhiy salomatligiga, maktabgacha va maktab yoshidayoq asos solinadi, shu sababli ularni gigiyenik jihatdan to'g'ri o'qitish uchun aqliy mehnat gigiyenasining ilmiy asoslariga tayanish kerak. Bu masalaga maktab

va maxsus maktablardagi pedagoglar va shifokorlar befarq bo'lmashliklari kerak. Aqliy va jismoniy jihatdan charchagan bolalar va o'smirlarning ish qobiliyatini oshirish, ularni dam olishiga uyquga e'tibor berish talab etiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, rang va vizual texnologiyalar ta'lim jarayonida faqat bezak emas, balki psixologik va didaktik vosita sifatida muhim o'rin tutadi. Amerikalik psixolog Jerom Bruner o'z tadqiqotlarida shunday deydi: "Inson axborotning 80 foizini ko'rish orqali qabul qiladi, shuning uchun ta'limda vizual elementlar ongga chuqurroq ta'sir ko'rsatadi." Bu fikr meni shunga ishonitiradiki, darslarda rang, shakl va tasvirlardan foydalanish o'quvchining diqqatini jamlaydi, o'rganish jarayonini ko'proq his etiladigan va uzoq esda qoladigan qiladi.

Shuningdek, mashhur pedagog Jan Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida ham bolalar dunyoni asosan ko'rish, tajriba va obrazlar orqali anglaydi deyiladi. Bu shuni anglatadiki, rangli vizual materiallar nafaqat darsni bezaydi, balki o'quvchining tafakkurini shakllantirish va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari haqida gapirganda, olim R. Mayerning "Multimedia Learning" nazariyasini ham eslab o'tish zarur. U shunday deydi:

"Ta'lim samaradorligi tasvir, matn va tovush uyg'unligida namoyon bo'ladi." Menimcha, aynan ranglar bu uyg'unlikning eng ta'sirli qismi. Ular o'quvchini dars jarayoniga hissiy jihatdan jalb qiladi, bilimni esa nafaqat ongda, balki his-tuyg'ularda ham mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vladimir Mogilevsev, Rangtasvir asoslari: o'quv qo'llanma. [Matn]:/ V. A. Mogilevsev Toshkent: Donishmand ziyosi, 2025, 176 b.
2. M.SH.Nurmatova, SH.T.Hasanova, RASM, BUYUMLAR YASASH VA TASVIRIY FAOLIYAT METODIKASI, Toshkent, 2010-yil, 181 b.
3. X. Ortiqov, Samarqand iqtisodiyot va sirves instituti, Yosh fiziologiyasi va gigiyena, Samarqand-2010, 227 b.
4. Z. T. RAJAMURODOV, B. M. BOZOROV A. I. RAJABOV, D. G'. HAYITOV, YOSH FIZIOLOGIYASI VA GIGIYENASI, TOSHKENT, «TAFAKKUR BO'STONI» , 2013, 399 b.
5. Shohista Shoyimova, Psixologiya va pedagogika, Toshkent, "EFFECT-D"-2022, 384 b.
6. Abdurahmonova, M. (2023). San'at ta'limida o'qituvchi shaxsining ilhomlantiruvchi roli. "Pedagogika va san'at" jurnali, 4(2), 56-63.
7. <https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz>